

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil 27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

---

**UMAROVA FARANGIZ BAXRIDDIN QIZI**

**ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK NASRIDA JAMIYAT VA AYOL  
MUNOSABATLARINING BADIY TALQINI**  
**(Devid Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlari  
misoldida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

UO‘K  
821.111'06.09+  
821.512.133'06.09

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**The contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) in  
philological sciences**

**Umarova Farangiz Baxriddin qizi**

Zamonaviy ingliz va o‘zbek nasrida jamiyat va ayol munosabatlarining badiiy  
talqini (Devid Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlari  
misolida).....3

**Умарова Фарангиз Баҳриддин қизи**

Художественная интерпретация отношений общества и женщины в современной  
английской и узбекской прозе (на примере «One day» Дэвида Николлса и «Бону»  
Икбала Мирзы).....23

**Umarova Farangiz Bakhriddin kizi**

Artistic interpretation of society and women relations in modern English and  
Uzbek prose (examples of David Nicholls's "One day" and Iqbal Mirza's  
"Bonu").....45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil 27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

---

**UMAROVA FARANGIZ BAXRIDDIN QIZI**

**ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK NASRIDA JAMIYAT VA AYOL  
MUNOSABATLARINING BADIY TALQINI**  
**(Devid Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlari  
misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2934 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qodirova Fazilat Shukurovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc)

**Rasmiy opponentlar:**

**Sodiqov Zohidjon Yaqubjanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Ko‘chimov Ulug‘bek Qo‘chqorovich**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_” \_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu [info@mail.ru](mailto:info@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi

(2024-yil “\_\_” \_\_\_\_dagi \_\_ - raqamli reyestr bayonomasi).

**I.M.Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**J.A.Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filol.f.d., professor

## KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida ayol va jamiyat munosabatlarining badiiy tahliliga doir muammolarni o‘rganish va uni anglash zarurati gumanitar fan sohalarida shu jumladan, qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishlarida muhim ahmiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, filologiya sohasida g‘oyaviy pishiq, mazmunan mukammal, sifat jihatidan yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Badiiy adabiyotda obrazlarning ifodalanishi jarayoni doimo ijtimoiy muhit, adabiy-ma’naviy va madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ong-u tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san’atda o‘z aksini topadi.

Dunyo adabiyotshunosligida ushbu mavzu nafaqat milliy, balki global adabiyotshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayollar obrazining badiiy tahlili orqali jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tushunishga, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga, shuningdek, global va milliy masalalar o‘rtasidagi uyg‘unlikni o‘rganishga xizmat qiladi. Bu tadqiqot gender va adabiyot o‘rtasidagi aloqalarni chuqurroq tahlil qilish, shuningdek, Sharq va G‘arb madaniyatlarini qiyosiy nuqtai nazardan o‘rganishga katta hissa qo‘shadi. Zamonaviy o‘zbek va ingliz adabiyotshunosligida ayol obrazining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ijtimoiy belgilar asosida tasniflanishi kabi masalalar ustida tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lishiga qaramasdan, badiiy psixologizm asosida jamiyat va ayol munosabatlarini tahlil qilgan holda ayolning jamiyatdagi o‘rnini tadqiq qilish mavzusining ahamiyatli jihatlaridan hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda “barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash”<sup>1</sup>ga alohida e’tibor qaratilishi o‘zbek va chet tillarda yaratilgan badiiy asarlarini qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tadqiq etishning naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Xususan, o‘zbek va ingliz romanlarida ayol ruhiyati tasvirini Iqbol Mirzo va Devid Nikolls ijodi misolida ilmiy tadqiq qilish hamda nazariy asoslarini belgilash zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Biz O‘zbekistonda “Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik” degan chuqur ma’noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g‘oyat jiddiy e’tibor qaratmog‘imiz lozim. ...yurtimizda dunyo adabiyotining bebafo mulki bo‘lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik bo‘yicha o‘ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta’kidlash lozim”,<sup>2</sup> degan fikrlari yurtimizda adabiyotimizga nechog‘lik e’tibor qaratilayotganligini ifodalaydi va milliy adabiy asarlarimizni tarjima qilish va ularni

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/-6600413>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” [mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi //https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va](http://mavzusidagi_xalqaro_konferensiya_ishtirokchilariga_yo'llagan_tabrigi //https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va)

dunyoga targ‘ib etish badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo‘yicha o‘ziga xos ijodiy maktabni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Juhon adabiyotshunoslida qiyosiy adabiyotshunoslikka bag‘ishlangan qator ilmiy asarlar yaratilgan. V.Jirmunskiy, N.Konrad, D.Dyurishin, A.Dima, I.Neupokoeva, V.V.Vinogradov, V.Ye.Xalizev, M.B.Xrapchenko, A.A Potebnya, M.M.Baxtin, kabi olimlarning tadqiqotlarida qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim nazariy masalalari keng yoritilgan.<sup>3</sup>

O‘zbek adabiyotshunosligida N.Komilov, F.Sulaymonova, B.Sarimsoqov, A.Qosimov, S.Meliev, R.Abdullaeva, O.Iskandarova, F.Jo‘raeva, N.Toirova, G.Xallieva, X.Djalilova, U.Saidov, Q.Yo‘ldosh, M.Yo‘ldosh, S.Komilova va M.Umarovalar tomonidan milliy adabiyotimizning boshqa xalqlar adabiyoti bilan o‘zaro aloqalari o‘rganilgan.<sup>4</sup>

<sup>3</sup> Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. – Л.: Наука, 1979; Конрад Н.И. Запад и Восток. – М., 1972; Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979; Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. – М.: Прогресс, 1977; Неупокоева И.Г. Проблемы взаимодействия современных литератур. – М.: Наука, 1963; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – С.397; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – С.407; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – С. 614; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 502.

<sup>4</sup> Komilov N. Ibn Sino va Dante. – T., 1983; Komilov N. Tafakkur karvonlari. – T.: Ma’naviyat, 1999; Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – T.: O‘zbekiston, 1999; Sarimsoqov B. Folklorizm tipologiyasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti, 1980. – № 4. – B.37-46; Qosimov A. Adabiyotda bolalik ma’naviy-axloqiy kategoriya sifatida: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 1999; Meli S. Dante va Navoiy: yuksak fazolarda uchrashuv // Juhon adabiyoti, 1998. – № 2. – B.6-12; Abdullayeva R. Shiller va o‘zbek adabiyoti (adabiy aloqa, tarjima va adabiy ta’sir masalalariga doir): Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 1986; Iskandarova O. “Diyonat” va “Qiyomat” romanlarida insoniy munosabatlarning badiiy tasviri: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 1995; Shomusarov Sh. Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 1998; Jo‘rayeva F. Tipologik obrazlarning qiyosiy tahlili: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2000; Toirova N. Badiiy adabiyotda ko‘zgu va surat ramzlarining g‘oyaviy-estetik vazifalari (Omon Muxtor va Oskar Uayld asarlari misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2018; Xalliyeva G. XX asr rus sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2016; Djalilova X. Sayohatnomalar janrining ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlari (XVIII asr G‘arbiy Yevropa ma’rifatchilik adabiyoti va milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2008. – 170 b.; Saidov U.

Ma'lumki, hozirgi kungacha ayol obrazini tadqiq qilish bo'yicha bir qancha olimlar o'z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Albatta ularning tadqiqot yo'naliishlari turli xil bo'lsa ham tadqiqot obyektlarining o'xshashliklari ularni bir biriga bog'lab turadi. Xorijiy olimlardan E.Showalter, S.Fatemeh, N.Arvas, I.Ahmad, N.Mahnaz; MDH olimlaridan Yu.Efimova, K.Pakoyakova, O.Penzina, M.Firstova, A.Vahramova va yurtimiz olimlaridan N.Muhammedova, Y.Eshmatova, M.O'razbaeva, F.Ismailova, H.Muhammedova, S.Usmonova, Sh.Choriyeva N.Ashurovalar ilmiy izlanishlar olib borgan<sup>5</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining "Doktorantlar, talabgorlar va talabalar o'rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy ingliz va o'zbek nasrida jamiyat va ayol munosabatlarini badiiy tahlil qilishdan iboratdir.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

zamonaviy nasrning janriy xususiyatlari va badiiyatining qiyosiy-tipologik tahlilini asosiy nazariy yondashuvlar asosida ochib berish;

ingliz va o'zbek nasrida ayol siyomosini yaratishda yozuvchilar badiiy mahoratidagi universal va mushtaraklikni qahramonlar ichki dunyosining ochib berilishi mezoni asosida o'rganish;

Iqbol Mirzoning "Bonu" asarida tasvirlangan jamiyatning ayol shaxsiyatiga ta'sirini muallif g'oyasining mantiqiyligi va ijodiy fantaziyasining kengligi mezoni negizida tahlil qilish;

---

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida komil inson masalasi (Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti bilan qiyosiy o'rganish tajribasidan): Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2002. – 161 b. Kamilova S.E. XX asr oxiri – XXI asr boshlari rus va o'zbek adabiyotida hikoya janri poetikasining rivoji: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2016; Umarova.M.Y. Ingliz va o'zbek adabiyotida ijodkor shaxs va qahramon muammosi (XIX- XX asr boshlari adabiyoti misoldida) : Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2022.-170 b.

<sup>5</sup> Showalter E. Towards a Feminist Poetics. In Women's Writing and Writing about Women. London: Croom Helm. 1979. – 22-41p; Basirizadeh F, Raoufzadeh N, Birgani SH. The Image of Women in Eastern and Western Epic literature: Shahnameh and Odyssey. Budapest International Research and Critics Institute-Journal (BIRCI-Journal) Volume 3, No 2, May 2020, 768-776 p; Nevin Arvas. Image of the middle eastern women in U.S. newspapers The Macrotheme Review. 2014. - 45-60 p; Норузи М. Женские образы в современной русской и персидской прозе. Афтореф. дисс... к.ф.н. – М., 2011. – С.20; Пензина О.В. Женская проза второй половины XIX века. Дис.. автореферат. Москва. 2009. – С.20; Покоякова Карина Александровна Этнокультурный и гендерный аспекты презентации бинарной оппозиции мужчина/женщина в языковом сознании носителей хакасского, русского и английского языков дисс., Абакан. 2016 – С.211 ; Фирстова М. Ю. Материнство в проблемно-тематической целостности романа Э. Гаскелл «Крэнфорд» // Мировая литература в контексте культуры: научный журнал. Пермь, 2013. Вып. 2(8). С. 13-18; А.Вахрамеева Гендерно-ориентированные высказывания в современном английском языке (на материале женской прозы) дисс., Санкт-Петербург 2009 – С.193; Eshmatova Y. Istiqlol davri o'zbek qissachiligidagi ayol ruhiyatining badiiy talqini: Filol. fan. nomz. ...diss. – T., 2020. – 153 b; Muxammedova X. E. Charlz Dikkens asarlarida ayol xarakteri tipologiyasi: Filol. fan. nomz. ...diss. – T., 2019. – 147 b; Muhammedova N. Margaret drebbl asarlarida ayol obrazi va uning ijtimoiy-estetik talqini: Filol.fan.nomz... diss – T., 2019. – 147 b; O'razbaeva M. Hozirgi o'zbek romanchiligidagi ayol obrazi va uning qiyosiy tahlili: Filol. fan. nomz. ...diss. – T., 2021. – 153 b; Usmanova S. O'zbek va ingliz romanlarida ayol ruhiyatini tasviri: Filol. fan. nomz. ...diss. – Farg'ona., 2020. – 140 b. Choriyeva Sh.Sh.Ingliz "yo'qotilgan avlod" adabiyotida ayol obrazining badiiy o'ziga xosligi (Richard Oldington va Vera Britten asarlari asosida): Filol.fan.nomz. ...diss. – Toshkent.,2023. – 135 b; Ashurova N.X. Zamonaviy o'zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasviri: Filol.fan.nomz. ...diss. – Toshkent.,2024. – 143 b.

syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishda yozuvchilar mahoratini tahlil qilish orqali ingliz va o‘zbek nasrida ayol obrazini yaratishdagi mushtaraklik hamda ijodiy individuallikni aniqlash;

Devid Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlarida ayol ruhiyati tasvirini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Devid Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlaridagi ayol obrazi tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Devid Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlaridagi jamiyat va ayol munosabatlarining badiiy talqini tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, psixologik analiz usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

zamonaviy nasrda ayol va jamiyat munosabatlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish asnosida ijtimoiy muhit, madaniy va milliy mentalitetni ochib beruvchi muhim nazariy yondashuvlar ayol obrazi poetikasi asosida dalillangan;

ingliz va o‘zbek nasrida ayol obrazi tasvirini yaratishda ijtimoiy-tarixiy sharoitdagi mushtaraklik, ayollarining jamiyatdagi o‘rnvi va ijtimoiy maqomi borasidagi g‘oyaviy yaqinlikni ifodalovchi adabiy-estetik va ijtimoiy omillar asoslangan;

o‘zbek va ingliz ayollarining xarakteriga xos farqli tomonlar, ya’ni Bonu tabiatidagi sharqona andisha, hokisorlik, jur’atsizlik hamda Emma timsolidagi erkin fikrlash, qat’iyat, jasorat ijodkorlar uslubining universal jihatlari va ijodiy individualligi asosida qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan ochib berish mezonini negizida isbotlangan;

Devid Nikollsning ”One day” va Iqbol Mirzoning ”Bonu” asarlarida jamiyatning ayol shaxsiyatiga ta’sirini qiyoslash orqali ayol timsolidagi umuminsoniy va milliy xususiyatlari aniqlanib, bosh qahramonlar Bonu va Emma obrazlarini yaratishda muallif g‘oyasining mantiqiyligi va ijodiy fantaziyasining kengligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Devid Nikollsning ”One day” asaridagi ayol ruhiyatini ochib berishda adibning psixologik analiz usullarini qo‘llash mahorati badiiy dalillar asosida asoslangan.

Iqbol Mirzoning ”Bonu” asarida jamiyatning ayol shaxsiyatiga ta’siri, jamiyatni olg‘a harakatlanishga da’vat etuvchi, uni pokiza asrovchi qudratli kuch ekanligi romanning g‘oyaviy mazmunini tashkil etishi isbotlangan.

Tadqiqot natijasida turli zamon va makon badiiy adabiyotida yaratilgan Devid Nikollsning ”One day” va Iqbol Mirzoning ”Bonu” asarlaridagi mushtaraklik va ijodiy individuallik ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tegishli tashkilotlardan olingan tasdiqlar, muammolarning aniq ta’rifi, ular tadqiqida qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, sentemental va psixologik analiz usullari qo‘llanilganligi, taklif va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan nazariy xulosalar oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat va magistratura ta’lim bosqichlarida “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Ilmiy ish asoslari” kurslari uchun o‘quv qo‘llanma hamda darsliklar

yaratishda qo'llanilishi mumkinligi tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Amaliy ahamiyati esa dissertatsiyada muhokama qilingan ayol ichki olamining badiiy talqini, badiiy mahorat va uslub muammolari haqidagi nazariy xulosalardan foydalanish imkoniyatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalarining filologiya yo'nalishi talabalari uchun ma'ruza mashg'ulotlarida, maxsus kurslarda, seminarlarda, magistrlik dissertatsiyalarni bajarishda asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Devid Nikollsning "One day" va Iqbol Mirzoning "Bonu" asarlari misolida zamonaviy ingliz va o'zbek nasrida jamiyat va ayol munosabatlarining badiiy talqinini tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida:

zamonaviy nasrda ayol va jamiyat munosabatlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish asnosida ijtimoiy muhit, madaniy va milliy mentalitetni ochib beruvchi muhim nazariy yondashuvlar ayol obrazi poetikasi asosida dalillangan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 16-oktyabrdagi 283-son qaroriga asosan tashkil etilgan "O'zbekistonda xorijiy tillar" elektron ilmiy-metodik jurnalida qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishida ilmiy maqolalar chop etishda foydalanilanilgan ("O'zbekistonda xorijiy tillar" elektron ilmiy-metodik jurnalni tahririyatining 17.12.2024 sanasidagi 9-sonli ma'lumotnomasi). Natijada jurnal mundarijasi zamonaviy ingliz va o'zbek badiiy asarlari qiyosiy tahlil etilgan maqolalar bilan boyitilgan;

ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazi tasvirini yaratishda ijtimoiy-tarixiy sharoitdagи mushtaraklik, ayollarning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy maqomi borasidagi g'oyaviy yaqinlikni ifodalovchi adabiy-estetik va ijtimoiy omillar asoslanganiga doir ilmiy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2020-2023-yillarda bajarilgan "Al-Jome' as-sahih" to'plami hadislarining zamonaviy talqinini yaratish" nomli MU-FZ-201912073 amaliy loyihada foydalanilanilgan (O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining 26.03.2024 sanasidagi 132-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan manbalarda o'zbek madaniyatida erkak va ayol noverbal xulq-atvorining gender jihatdan o'ziga xosliklarini shakllantirishga yordam beruvchi ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar tahlili aks etgan.

o'zbek va ingliz ayollarining xarakteriga xos farqli tomonlar, ya'ni Bonu tabiatidagi sharqona andisha, hokisorlik, jur'atsizlik hamda Emma timsolidagi erkin fikrlash, qat'iyat, jasorat ijodkorlar uslubining universal jihatlari va ijodiy individualligi asosida qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan ochib berish mezoni negizida isbotlangani xususidagi mulohazalardan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan "Xotin-qizlarda liderlik ko'nikmalari shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari" nomli amaliy loyihada foydalanilanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek mentaletida ayollarning o'rni va ijtimoiy maqomi, ularning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalar talqini loyiha doirasida chop etilgan dastur va qo'llanmalar mazmun-mohiyatini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy va ilmiy-nazariy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish nashr qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola: 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop ettilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiyligi 120 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tafsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'naliishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ingliz va o'zbek adabiyotida ayol obrazi muqoyasasining ilmiy nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ayol obrazining turli manbalarda, afsona va xalq dostonlarida, ingliz va mumtoz adabiy namunalarida tasvirlanganligi hamda uning jahon va o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi batafsil yoritilgan. "*Zamonaviy nasrning qiyosiy tahlili bo'yicha asosiy ilmiy-nazariy yondashuvlar*" nomli birinchi faslda madaniy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo'ymoqda. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasi, poetika, nazm, xalqaro adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalalari, mumtoz adabiyot tarixi, tarjimashunoslik, adabiyestetik, badiiy-falsafiy tafakkur takomili doirasida ayol obrazini talqin etish va ifodalash bo'yicha zamonaviy yondashuvlar obraz poetikasi tahlilida dolzarblik kasb etmoqda.

XXI asr zamonaviy nasrida yaratilgan ayol obrazini qiyosiy tadqiq qilish uchun albatta ma'lum bir aniq qiyoslash obyektiga, usuliga, metodologik vositalariga ega bo'lishi zarur. Bunda tanlanayotgan asar har tomonlama bir biriga chambarchas bog'liq bo'lsa, qiyoslanayotgan ishning samarali ochib berilishiga yordam beradi. Olima G.Xalliyeva qiyosiy tahlil qilish uchun to'rt tipik vaziyatni belgilab beradi:

1. Bir makon va zamonda mavjud bo'lgan adabiy voqeа-hodisalarini qiyoslash.
2. Bir makonda, lekin har xil zamondagi adabiy hodisalarini qiyoslash.
3. Bir zamonda, lekin har xil makonda mavjud bo'lgan obyektlarni qiyoslash.
4. Har xil makon va zamon adabiy hodisalarini qiyoslash<sup>6</sup>.

Yuqoridagilarga asoslanib, qayd etish mumkinki, ayol obrazini qiyosiy tahlil qilish yordamida muqoyasaga tortilgan materiallar ular o'rtaqidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Bundan ko'rindaniki, ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazini qiyosiy tahlil qilishda muayyan zamonni tanlash – qiyosiy tadqiq

<sup>6</sup> Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B.19.

natijalarining samaradorligini taminlaydi va natijalardagi aniqliklarni yaqqol ifodalarydi. Chunki zamon birligi asarda kuzatilayotgan voqeja va hodisalarni aniq bir rakursda tadqiq etishga, unda bo‘layotgan o‘zgarishlarning o‘xshash hamda farqli jihatlarini to‘laligicha ochib berishga xizmat qiladi.

Bobning “*Ingliz nasrida ayol obrazining tasvirlanishi*” deb nomlangan ikkinchi faslida ingliz nasri Angliyaning nasroniylashuvi natijasida paydo bo‘lgan davrdan XXI asrgacha yaratilgan asarlardagi ayol obrazlari tasviri tahlil qilingan.

XIII asr oxirida ingliz adabiyotida ham jiddiy e’tiborga loyiq nasriy asarlar yaratilgan bo‘lib, XIV asr boshlarida nortgeylik Dan Mishel tomonidan yozilgan “Prick of Conscience” (“Vijdon nayzasi”) va aynan o‘sha asrda shakllangan nasrda yozilgan Richard Rollning “The Hermet of Hompale” (“Gembol zohidi”) asarini eng yuksak nasriy asarlar safiga kiritish mumkin. Tahlillarimizdan ma’lum bo‘lishicha, bu davrda nasriy yo‘nalishda yozilgan asarlarning ko‘p qismi insonni tushunish va boshqarish kabi mavzularga doir diniy asarlardan tashkil topgan. Bunday asarlarda aynan bir qahramon obrazi emas, balki diniy aqidalarni ochib berishga asosiy urg‘u berilgan. Shuning uchun keltirilgan davr nasrida ayol obrazlarini gavdalantirish holatlarini kam uchratish mumkin va buning sababi sifatida keltirilgan davrda ayollar jamiyatning bir qismi sifatida qaralishi kerak deb hisoblangan g‘oyalar vujudga kelmaganligi bilan izohlash mumkin.

XVIII asrga kelib Angliyada xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi quyidagicha sinfiylashtirilgan edi: 1) quyi; 2) o‘rta va 3) yuqori tabaqa vakillari<sup>7</sup>. Mamlakatning zodagon xonimlari vaqtlanmini qanday o‘tkazish tashvishida bo‘lsa, o‘rta tabaqa ayollari o‘ziga mos kuyov topish, kiyinish va o‘ziga oro berish bilan ovora bo‘lganlar. Quyi sinf vakillarini ertangi kun uchun qayerdan yegulik topish tashvishi bezovta qilgan. Mazkur sinfiy tabaqalanishlar va tengsizliklar ana shu davr adabiyotida ham o‘z aksini topadi.

Arman olimi O.Stadnichenko o‘z tadqiqotida ingliz yozuvchisi Sharlotta Brontening “*Villette*” (“Shahar”) asaridagi ijtimoiy kontekstda ayol obrazi falsafasini morfologik tahlil qilish orqali ingliz ayoli xarakterini ochib berishga harakat qiladi. Uning fikriga ko‘ra, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik tasviri XIX asr Yevropa madaniyatining muhim elementi hisoblangan va ayol obrazini tasvirlash evolyutsiyasi davomida ayol “tobe ayol” obrazidan “erkin fikrli ayol”<sup>8</sup> obraziga o‘tishi tasvirlangan.

Bobning uchinchi faslida *o‘zbek nasrida ayol obrazining badiiy talqini* masalasi tadqiq etilgan. O‘zbek adabiyoti boy tarixga ega bo‘lib, o‘zining mashhur asarlari va yozuvchilar bilan dunyoga tanilgan. Turkiy nosirlardan Balxiy, Rabg‘uziy, Navoiy, Saidadin Muhammad va boshqa ko‘plab yozuvchilarni misol keltirish mumkin. Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Navoiyning “Mahbub ul qulub” singari nasriy asarlari, ayniqsa, “Boburnoma” o‘zbek badiiy nasrining qadimiy va go‘zal namunalari sirasiga kiradi.

X-XVIII asrlarda yaratilgan nasriy asarlarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida o‘sha davr nasrida to‘qima obrazlar kam uchrashi, nasrda faqatgina real obrazlar

<sup>7</sup> Usmanova S.S. O‘zbek va ingliz romanlarida ayol ruhiyati tasviri: Filol. fan. fals. d-ri. diss, 2021. – B.140.

<sup>8</sup> Stadnichenko O., Kravchenko V., Laskova Y., Bondarenko V., Lenok M. Philosophy of the female image in the context of social circumstances in fiction, Yerevan, 2021. – 9 p. DOI: 10.24234/wisdom.v20i4.602 WISDOM 4(20), 2021


tasvirlangani kuzatiladi. X-XVIII asrlar oralig‘ida nasriy janr u qadar rivojlanmagan, yozilgan nasriy asarlar faqat real voqelikka asoslangan tarixiy asar sifatida yaratilganligi ayonlashadi. Qadimgi o‘zbek adabiyotida badiiy gavdalantirilgan ayol obrazlari zamonaviy adabiyotdagi ayol obrazlaridan farqli o‘laroq, yaxlit xususiyatga, real voqelikka ega bo‘lib, bu keltirilgan davr ayol xususiyatlarini qayta tiklashga imkon beradi.

XX asrning 20-30-yillari o‘zbek adabiyotida ayollar obraziga eng ko‘p murojaat etgan ijodkorlardan biri Abdulla Qodiriydir. Uning jadidchilik ruhiyati sezilib turuvchi “Juvonboz”, “Baxtsiz kuyov” asarlarida qo‘shtonlik illati insonni ma’naviy tanazzulga olib boruvchi, jaholatga chorlovchi omil sifatida ifodalanadi. Adibning “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida o‘zbek ayollarning ruhiy olami betakror obrazlar orqali ochib berilgan.

Abdulhamid Cho‘pon ijodida ham o‘tmishda ayollarga bo‘lgan munosabat, ular haq-huquqlarining poymol etilishi, ayanchli qismati, dard-u hasratlari yoritilgan. Xususan, uning “Kecha va kunduz” romanida xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi haqida so‘z yuritiladi. Asarda Sharq ayollariga xos kuyunchaklik, fidoyilik, mutelik negizida axloqsizlik ayovsiz fosh etilgan.

Dissertatsianing ikkinchi bobi **“Zamonaviy ingliz va o‘zbek nasrida ayol va jamiyat munosabatlarining badiiy talqini”** deb nomlangan bo‘lib, unda XXI asr ingliz va o‘zbek nasrida jamiyat va ayol munosabatlarining tasvirlanishi, jamiyatning ayol shaxsiyatiga ta’siri, David Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlarida ayol obrazini yaratishdagi umumiylashtirish va ijodiy individuallikning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Mazkur bobning birinchi faslida *Devid Nikollsning “One day” asarida tasvirlangan jamiyat va ayol munosabatlari* o‘rganilgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning nazariyalariga tayanib, tadqiqotimizda ayol va jamiyat munosabatlarini tahlil qilishning quyidagi mualliflik mezoni taqdim qilindi (1-rasm):



### **1-rasm. Ayol va jamiyat munosabatlarini tahlil qilish mezoni**

Ushbu mezonlar bo‘yicha ayol va jamiyat munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin.

Tezkor rivojlanib borayotgan zamonaviy davrda ayollar o‘z qobiliyatlarini ikki sohada, ya’ni oila va jamiyat ishlarida muvaffaqiyatli olib borishmoqda. Devid Nikollsning “One day” (“Bir kun”) nomli asarida ham ana shunday ayol qahramonlar tasvirini uchratish mumkin. Asar bosh qahramoni Emma Morli obrazida zamonaviy davrning mustaqil fikrli ayoli gavdalantirilgan va yozuvchi bu orqali XXI asrdagi

mustaqil ayol obrazini tasvirlashga harakat qilgan. Roman 1988-yildan 2008-yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Unda 1990-yillar va 2000-yillar boshidagi Britaniya jamiyati va insonlarning illatlari-yu fazilatlari tasvirlangan. Shuningdek, romanda o‘scha davr yoshlaringin qarashlari, dard-u hasratlari, odatlari va hayotda o‘z o‘rnini topishga nisbatan intilishlari aks ettirilgan.


Asarda qahramonni tahlil qilish orqali uning shaxsiyatini ochish imkoniyati paydo bo‘ladi. Asarning bosh qahramoni Emma Morli ingliz ayolining tipik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi (2-rasm).

Yozuvchi Emmani umumlashma obraz sifatida real hayotda kuzatiladigan ayollarga xos xarakterlarni birlashtirgan holda gavdalantirishga harakat qilgan. Ijodkor Emma obrazini yaratishda realistik metoddan foydalangan, qahramonning turmush haqidagi orzu-umidlari tasviri hayotiyligi bilan ajralib turadi. Janr, uslub va tasviriy vositalarga ko‘ra, epik obraz hisoblanadi. Asarda muallif Emmaning ayanchli qismatini, boshidan o‘tgan qiyinchiliklari va voqealarning iztirobli yakunini epik an‘analar orqali tasvirlaydi. Asarda ko‘tarilgan ayollarga tegishli muammolardan yana biri – ayollarning kasb tanlashi va faoliyat yuritishi borasidagi nomutanosiblik. Hozirgi kunda ayollar nafaqat ishchi, balki rahbar sifatida ham faoliyat yuritishlariga qaramay, hali-hanuz ularning aql-zakovatini tan olmaydigan eskicha fikr yuritadigan insonlarning mavjudligini ayollarga nisbatan ularning bepisand munosabati misolida tasvirlashga harakat qilinadi. Bundan tashqari, asardagi bazi parchalarda ayollar o‘zlarini jamiyatda asosiy shaxs emas, balki ikkinchi darajali shaxs sifatida tan olishlariga qaratilgan g‘oyalar ham mavjud: “*Too much had happened to him, too little had happened to her. Was it some kind of sick revenge? Because she got a better degree than him.*” “*But you ‘ve got a double first! What happened to your double first?*”<sup>9</sup>.

Yuqoridagi satrlarda Emma Londonda ishsiz qolib ketganida, kollejni bekorga tugatganligi va o‘qish unga hech qanday foyda keltirmayotganligini o‘ylab, hayotdan to‘yib, depressiyaga tushib qolgan hissiy holatlari ifodalangan. Chunki Dekster Emmadan ancha yomon o‘qigan bo‘lsa ham, tez va yaxshi ish topishi va muvaffaqiyatga erishishi Emmaning jahlini chiqaradi. Muvaffaqiyatsizligining asosiy sababini esa o‘zining ayol bo‘lganligi deb tushunadi.

---

<sup>9</sup>David Nicholls. One day. – London, 2009. – 244 p. – “U bilan juda ko‘p narsa sodir bo‘lgan, unga esa hech narsa bo‘lmagan, juda oz narsa bo‘lgan. Bu qandaydir kasal qasosmi? Chunki u undan ko‘ra yaxshiroq diplom olgan”. “Ammo sizda birinchi dubl bor! Dublingizga nima bo‘ldi?” (Tarjima muallifga tegishli).



**2-rasm. Emma obrazining mufassal tahlili**

Asardagi ayol qahramonlar xarakterini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ayollar erkaklarga nisbatan kuchsiz va muvaffaqiyatga erishishda qiynaladigan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, asarda ayollar – bo'ysunuvchi, o'ziga ishonchi past, his-tuyg'ularga beriluvchan degan qarashlar erkaklar tomonidan umumiylar tarzda ifodalanganligi kuzatiladi. Lekin asarning bosh qahramoni Emma tasviri orqali yozuvchi ayollarga xos stereotiplarni parchalashga harakat qiladi va zamonaviy ayol qanday xarakterga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatishga intiladi. Bunda yozuvchi ayol kishi jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun ko'plab mashaqqatli yo'llarni bosib o'tishi, har qanday vaziyatda ham qarshilikka qarshi kurasha olishi kerakligini tushuntirmoqchi bo'ladi.

Ammo sir emaski, asrlar davomida ayollar ijtimoiy noto'g'ri qarashlar qurboni bo'lishgan. Bu esa ayollarning vazifalari oila ishlari bilan cheklanib qolishiga olib kelgan.

Asarning bosh qahramonlaridan biri Emma Morli obrazi orqali yozuvchi ingliz ayollarining oilada va jamiyatda bugungi kundagi maqomlarini ohib berishga harakat qilgan. Xususan, Emma Morli asarda qator rollarda yoritilgan bo'lib, bular: ona, do'st, mashuqa, yor, talaba, ishchi, yozuvchi kabi obrazlar orqali gavdalantiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, ayol obrazini yaratishda asosan ayol va jamiyat o'rtasidagi munosabatning ifodalanishi, ayolning jamiyat qatlamlarida qanday tan olinishi va uning jamiyatda, oiladagi o'rnini tahlil qilgan holda ayol obrazining nasrda tasvirlanishi orqali davr va mamlakat madaniyati va an'analari haqida ma'lumot olish mumkin.

Bobning ikkinchi fasli *Iqbol Mirzoning "Bonu"* asarida jamiyatning ayol shaxsiyatiga ta'sirining tadqiqiga bag'ishlangan. Kuzatish va tahlillarimizga qaraganda, ayol obrazi tasvirlangan qaysi asarni olmaylik, ularning har birida ochiq va yopiq holda jamiyat bilan bo'lgan munosabatining ijobiy yoki salbiy jihatlari ifodasi kuzatiladi. Bu, albatta, asarda yoritilgan davr muammolari, ziddiyatlari negizida ayolning jamiyatdagi o'rni va mavqeyi ohib berilgan. Ana shunday ayol va jamiyat munosabatlari aks etgan asarlardan biri Iqbol Mirzo tomonidan yozilgan "Bonu" romanidir. Ijodkor nazmga sig'magan dardlarini ushbu asari orqali nasrda ifodalashga harakat qiladi.

Iqbol Mirzoning "Bonu" romani 2016-yilda yozib tugallangan. Roman epistolyar uslubda yozilgan bo'lib, romanda ayol ruhiyati, uning ichki olamidagi evrilishlar, xohish-istiklari gavdalantiriladi. Yozuvchi Bonu timsoli orqali ayol matonati, jasorati, muhabbati, sha'ni, vafosi, sabrini aks ettiradi. Asarda ayol kishining ta'lim olishiga nisbatan keltirilgan fikrlarning turlichaligi kuzatiladi. Biz ularni sentimental tahlil usulidan foydalangan holda uch turga bo'lib tahlil qildik: *salbiy, ijobiy va neytral*.

*Birinchi tur*, ayol kishining ta'lim olishiga salbiy munosabat bildirgan qahramon – Bonuning otasidir. U Bonu o'qishga kirganini eshitib, bunga ro'yixushlik bermaydi: "*Qiz bola to'rt yil o'qishi shartmi? Sovchilar orasida tag-tugli bama'nilari ham ko'p, ularni ranjitish yaxshimas, tengi chiqsa tekinga ber, degan gap bor*"<sup>10</sup>. Bu fikrlarda ayol faqatgina oila qurish vazifasini bajarishi kerakligi ta'kidlanyapti. Bonu koreys tili imtihonini topshirish uchun Toshkentga ketmoqchi bo'lganida sevgilisi Olmosning

<sup>10</sup> Iqbol Mirzo. Bonu. Toshkent, 2020. – B.15.

qarshiligi orqali ayol kishining ta’lim olish huquqlarini erkaklar tomonidan qisman cheklanishi namoyon bo‘ladi. Buni “Men Toshkentdagи imtihonga Olmosning qat’iy taqiqi sabab bora olmadim”,<sup>11</sup> degan nadomatida ko‘rish mumkin.

Ikkinci turga esa Bonuning ta’lim olishiga ijobjiy yondashgan Bonuning onasi va opasi obrazlari kiradi, ularning “*Bonu o‘qiydigan qiz, kelajakda olima bo‘ladi...*”<sup>12</sup> degan e’tirofi orqali ayollarning ta’lim olishga bo‘lgan xayrixohliklari namoyon bo‘ladi.

Asardagi jamiyat va ayol munosabatlarini belgilab beruvchi qarashlardan yana biri – jamiyatda ayol chiroyi orqali hurmat qozonishi mumkinligi bilan bog‘liq. Bunday fikrlarning asosiy qismi roman qahramoni Bonu tavsifi orqali ifodalanib, o‘z go‘zalligi orqali jamiyatdagi o‘rni boshqa qizlarga nisbatan birmuncha yuqoriroq bo‘lganligi asarning bir nechta joyida ta’kidlab o‘tiladi. Bunga misollar:

– “*To‘g‘risi, sinfdoshlarim ba‘zida chiroyimga havas qilib gapirishgan, birovlari hasadda so‘z qistirgan paytlari ko‘p bo‘lgan. Maktab havaskorlik to‘garagida bosh rollar menga ishonib topshirilganda sinfdoshim Adibaning g‘ayrligiga javoban adabiyot o‘qituvchimiz Jannat opa “Bonuning ko‘rinishi ham mos keladi”, deb og‘ziga urgani ham bor gap”.*

– “*Men bo‘yim yetib ulg‘ayganim sayin chiroyim ochilib, go‘zallahib borayotganimni o‘zim ham bilib, ko‘cha-ko‘yda suhbatlashib turganlar men o‘tganimda birdan jimb qolishlaridan, avtobusga chiqsam beixtiyor hamma men tomon qayrilib olishidan, o‘qituvchilarim baholarimni biroz oshirib qo‘yishlaridan... ich-ichimdan quvonar... bir so‘z bilan aytganda, hayotdan mammun edim*<sup>13</sup>.

Albatta, Bonuning tashqi qiyofasi insonlar o‘rtasida hurmat qozonishiga sabab bo‘lishi haqidagi mulohazalar yillar davomida o‘zgarganini, tashqi go‘zallik o‘tkinchiligi, asosiysi, ichki go‘zallik ayollikning muhim xususiyatlaridan biri ekanligi e’tirof etiladi.

Ikkinci bobning uchinchi fasli Devid Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “*Bonu*” asaridagi ayol obrazini yaratishda mushtaraklik va ijodiy individuallikni aniqlashga bag‘ishlangan. Ma’lumki, har bir yozuvchi asar yaratar ekan, o‘zining muayyan uslubidan foydalangan holda asar syujetini shakllantiradi. Bu esa yozuvchining ijodiy individualligini to‘la namoyon qilish bilan bir qatorda, boshqa yozuvchilardan ajralib turuvchi farqli jihatini va ijodiy mushtaraklikni ochib berishga xizmat qiladi.

Bu borada adabiyotshunos Y.Solijonovning ta’kidlashicha, “Zamonaviy adabiyot uchun muallifning dunyonи his etish konsepsiyalaridagi xilma-xillik, voqelikni anglashning yangicha shakllari paydo bo‘lishi hamda adabiy obrazlarni milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan qayta anglashdir...”,<sup>14</sup> degan edi. Agarda yozuvchining o‘z individual ijodiy yondashuvi mavjud bo‘lsa, asardagi xilma-xillik o‘sha jamiyatning adabiy obrazlarini mohirona va qiziqarli tartibda yoritib bera oladi.

<sup>11</sup> O‘sha manba. – B. 44.

<sup>12</sup> O‘sha manba. – B. 16.

<sup>13</sup> O‘sha manba. – B. 12.

<sup>14</sup> Solijonov Y. XX asrning 80-90 yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi: Filol.fan. d. ...diss. – Toshkent, 2002. – B.66.

Ikki yozuvchining ijodiy individualligini mushtaraklik va farqli jihatlarini qiyoslar ekanmiz, ularning asar yozish uslubini, ijodkorligini, badiiy to‘qimalardan foydalanish mahoratini, badiiy asar tilini tahlil qilish muhimligi ko‘zga tashlanadi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlarni tahlil qilar ekanmiz, ikki ijodkorning ayol obrazini yaratish mahoratidagi mushtarakliklarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin. (1-jadvalga qarang)

### 1-jadval

| Ijodkorlarning ayol obrazini yaratishdagi ijodiy individualligini baholash |   |   |   |
|--|---|---|---|
| Ijodiy individualligini ko‘rsatuvchi xususiyatlar                          | Ingliz asari: Devid Nikollsning “One day” (“Bir kun”)   | O‘zbek asari: Iqbol Mirzoning “Bonu”                      | O‘xshash va farqli jihatlari  |
| <b>Uslubi</b>  | Hayotiy voqelikga asoslangan  | hayotiy obrazlarni gavdalantirilgan                       | - jamiyatda o‘z yo‘lini topishda qiyngangan<br>- sevgisi rad etilgan ayol   |
| <b>Ijodiy mahorati</b>   | - 20 yillik voqealarni bir sanada aks ettishi (15 aprel)<br>- Xatlar orqali ichki kechinmalar tasviri | - barcha voqealarni sms xabarlar orqali hikoya qilinadi   | - ikki asr voqealiklari aks ettishi<br>- epistolyar usulda hikoya qilinishi   |
| <b>Obraz yaratish turi</b>   | realistik   | realistik   | - obraz yaratishda inson xarakteri, xulq-atvori, xattiharakatlari real hayotga mos keladigan xususiyatlari asosida obrazlar yaratilgan.   |
| <b>Hikoyachi tili</b>  | Voqealiklar uchinchiligi shaxs tomonidan hikoya qilingan  | voqealar asar bos qahramoni Bonu tilidan hikoya qilingan. | - Devid Nikolls asarida voqealar uchinchiligi shaxs tomonidan hikoya qilingan bo‘lsa, Bonu asarida esa birinchi shaxs ya’ni, Bonuning o‘zi tomonidan hikoya qilingan.   |
| <b>Portret tasvirlash usuli</b>  | Dinamik portret   | Analitik portret  | - Devid Nikolls tasvirlashning bilvosita usulida ayol tashqi ko‘rinishini tasvirlagan bo‘lsa, o‘zbek yozuvchisi Iqbol Mirzo esa ayolning tashqi ko‘rinishi tasviriga aniqlik va ravshanlik kiritish maqsadida bevosita tasvirlash usulidan foydalangan. |

Tabiiyki, asardagi qahramonlar yozuvchining ijodiy niyatiga asosan o‘ziga xos qiyofa va ko‘rinishda tasvirlanadi. Bu ularning holati va ko‘rinishlarini tasavvur qilish orqali asar qahramonlari borasida muayyan fikr va xulosaga kelish imkoniyatini yaratadi. Bertensning ta’riflashicha, badiiy asardagi qahramonlarning tashqi qiyofasi, ko‘rinishi, yuzi, kiyim-kechagi, yurish-turishining tasviri portret deb ataladi.<sup>15</sup> Shunday ekan, ikki asarda ham yozuvchilarning ayol obrazini yaratishdagi ijodiy mushtarakliklarini aniqlash va asardagi ayol obrazini yaratishda ijodkor tomonidan tasvirlangan portretlarni tahlil qilish asar yozilgan davr ayollariga xos bo‘lgan tashqi qiyofasi, yurish-turishi tasvirlaridagi o‘xshash va farqli jihatlarni tasavvir qilish imkonini beradi.

Devid Nikollsning “One day” asarida bir qancha ayol obrazlari gavdalantirilgan bo‘lsa-da, asardagi bosh qahramon Emma Morli obrazi orqali o‘sha davrdagi Angliya ayollarini timsolini kitobxon ongida yaratish mumkin bo‘ladi. Asarda Emma Morli o‘ziga xos shaxsiyatga ega obraz sifatida jozibali tarzda tavsiflanadi. Xususan, uning tashqi ko‘rinishi, xuddi fe’l-atvori singari, batafsil jismoniy xususiyatlarni ifodalash bilan emas, balki his-tuyg‘ulari, tanlovlari va boshdan kechirgan voqealari orqali yorqinroq tasvirlanadi.

